Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







„IKKI ESHIK ORASI „ ROMANIDA RUHIY HOLAT IFODALOVCHI FONATSION VOSITALAR

Sharipova Maxliyoxon G'ayratovna
FarDU akademik litsey o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24043351

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'tkir Hoshimovning asarlaridagi ruhiy holat ifodalaydigan noverbal vositalar haqida fikr keltirilgan.

Kalit so'zlar: Psixolingvistika,funktsionallashish , paralingvistika, verbal vositalar, noverbal vositalar, kinetik vositalar.

Paralingvistikaning o'rganish obyekti masalasida mutaxassislar o'rtasida turli xil qarashlar mavjud. Ularning bir guruhi kommunikatsiyaning barcha noverbal vositalarini paralingvistika doirasiga kiritadilar. G.V.Kolshanskiy fikricha, paralingvistik vositalar subyektning verbal (so'zli) kommunikatsiyasining chala tomonlarini to'ldiradigan kommunikativ podsistemadir. Ikkinchi guruhdagilar esa faqat nutqni kuzatib boradigan har qanday so'zsiz kommunikatsiya vositalarini paralingvistika obyekti hisoblaydilar. Quyidagi hodisalar nutqni kuzatib boradigan vositalar deb qaraladi: xarakterizatorlar (kulgi, yig'i, esnashlarning turlariga ko'ra xalqaro farqlari), kvalifikatorlar (talaffuz tezligining turlari, asosiy tonning balandligi va boshqalar), ayiruvchilar (hm, uf-uf kabi til hodisasi bo'lmagan tovushlarning kombinatsiyalari) hamda imo-ishoralar, mimikalar va yozuvdagi turli yordamchi grafik ishoralar. Yana bir guruh tadqiqotchilar informatsiyada qatnashadigan barcha yordamchi vositalarni verbal bo'lmagan vositalar doirasiga kiritib, ularni uch guruhga ajratadi: 1) tabiiy nutqni kuzatib boruvchi noverbal vositalar; 2) nutq ifodasi o'rnida qo'llaniladigan noverbal vositalar; 3) verbal vositalar bilan birga ishlatilib aralash holatni hosil qiladigan noverbal vositalar. Birinchi tur vositalari paralingvistik holat, ikkinchisi til belgilari substitutsiyasi, uchinchisi esa til va til bo'lmagan vositalar interferensiyasi deb izohlanadi. Ko'rinib turibdiki, mazkur guruhdagi olimlar faqat nutqni kuzatib boradigan noverbal vositalarnigina paralingvistika tarkibiga kiritadilar. Ularning fikricha, noverbal vositalar (imo-ishoralar ham) uch xil kommunikativ funksiyani bajaradi. Shulardan faqat birinchisigina paralingvistika doirasiga kiritiladi. Biz paralingvistika doirasiga kommunikatsiyada ishtirok etadigan barcha supersegment vositalar va imo-ishora hamda mimikalarni kiritish tarafdorimiz[1].

Ko'rinadiki, A.Nurmonov imo-ishora hamda mimikalar bilan birga, supersegment vositalarni ham paralingvistika doirasiga kiritadi.

Supersegment birliklarga urg'u, ohang, melodika, pauzalar kiradi. Bunday birliklar so'zga, fraza, gapga yoki nutqqa yaxlit aloqador bo'lib, ularni so'z, gap yoki nutqdan ajratilgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ularni ustama hodisa (M.Mirtojiyev) deb nomlash hollari ham uchraydi[2].

M.Saidxonov paralingvistik vositalar funksiyasini belgilar ekan, ular verbal nutqni "to'ldirib, izohlash, ma'lum darajadagi axborotlarni uzatish, fikr ifodalash" ga xizmat

[1] Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдли. 1-жилд. Тошкент. – Б.159.
[2] Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005. – B.19.

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







qilishini aytadi[3] hamda o‘zbeklarda aloqa-aralashuvda ishlatiladigan noverbal vositalarga fikr anglatishda qatnashuvchi barcha kinetik belgilar, ishoralar, tana harakatlari; axborot uzatishda qatnashuvchi yuz o‘zgarishlari: mimika, poza; ovozdagi turli holatlar; tembr, pauza, urg‘u, tovush bo‘yog‘i va boshqalar kirishini ta’kidlaydi[4].

M.Hakimov noverbal vositalar tarkibini izlanuvchilar turlicha talqin etishlarini ta’kidlaydi va shunday xulosaga keladi: “Paralingvistika tilshunoslikning yangi shakllangan sohalaridan biri bo‘lib, uning umumnazariy asoslari hali to‘liq shakllanmagan. Shu sababli paralingvistik vositalar tarkibi borasida izlanuvchilar o‘rtasida bahs hamon davom etmoqda”[5].

V.Yartseva o‘z lug‘atida paralingvistik vositalar uch ko‘rinishda bo‘lishini ko‘rsatib o‘tadi: a) fonatsion (temp, ovoz balandligi, tovushlarning talaffuzi, suhbatning tezligi, turli xil to‘xtalishlar); b) kinesika (imo-ishora, mimika, gavda qismini turli pozalarda tutish holatlari); v) grafik (harflar o‘rniga turli shartli belgilardan foydalanish yoki unga qo‘shimcha qilish, husnixat va shrift o‘lchamidagi o‘zgarishlar)[6].

K.Slutskaya ham paralingvistik vositalarni uch guruhga bo‘lib tasniflaydi: fonatsion vositalar, kinetik vositalar va grafik vositalar[7].

Intonatsion vositalar nutqning eng muhim komponentlaridan sanaladi. “Intonatsiya yordamida so‘zlovchining emotsional holatini, his-tuyg‘ularini, nutq yaratishdan maqsad-muddaosini, masalan, nutq orqali ifodalanmoqchi bo‘lgan hamdardlik yoki g‘azab, mazaxlash yoki kesatish kabi ma’nolarni anglatish, tinglovchiga yetkazish mumkin”[8]. Og‘zaki muloqotni biror verbal xabarning ijobiy yoki salbiy ma’noga egaligi aynan intonatsiya yordamida oydinlashadi. Oyi, ruchkamni yo‘qotib qo‘ydim, degan bolaga onasi Yaxshi-da! deb javob berishi aslida ijobiy emas, salbiy ma’no anglatadi. Intonatsiyasiz bu jumlaning qanday ma’no anglatishini aniqlash imkonsiz bo‘lib qoladi.

Intonatsiya ohang, urg‘u, temp, pauza, tembr kabi tarkibiy qismlardan iborat. Og‘zaki so‘zlashuvda bu vositalarni ilg‘ash, barchasining ahamiyatini anglash mumkin, lekin yozma nutqda buning iloji yo‘q. Shu sababli yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning so‘zlashuv ohangi, tempi yoki pauzasini lisoniy vositalar yordamida ifoda qiladilar. Maxsus so‘z va birikmalar qahramonlar nutqiga xos intonatsion vositalarni bildirish, ularning ruhiy-hissiy holatini aks ettirish uchun qo‘llanadi.

Badiiy matnda intonatsion vositalar ichida ohang, ya’ni melodikaning verbal tasviri eng ko‘p uchraydi. “Melodika intonatsiyaning asosiy va yetakchi tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ovozning asosiy ton harakatidir. Intonatsiyaning melodik

[3] Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва мимикалар. Илмий-оммабоп рисола. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.5.

[4] Саидхонов М. Ишораларнинг вербаллашуви ва матний хусусиятлари. – Тошкент, 2022. – Б.51.

[5] Ҳакимов М. Паралингвистик модус хусусида баъзи мулоҳазалар // Nazariy va amaliy tadqiqotlar, 2022. – №2 (1). – В.137.

[6] Ярцева В. Большой энциклопедический словарь. 2-е издание. – М., 1998. – С.367.

[7] Слуцкая К.А Структурно-семиотические аспекты русскоязычной и англоязычной визуальной поэзии. Дисс. ...канд. филол. наук. – Нижневартовск, 2011. – С.50.

[8] Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. – Фарғона, 2021. – Б.121.

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







harakati tekis, ko‘tariluvchi va pasayuvchi tonlardan iborat bo‘lib, u gapning kommunikativ turini aniqlashda asosiy o‘rin tutadi”[9].

So‘zlovchi ovozining baland yoki pastligi badiiy matnda shivirlash, pichirlash, baqirish, qichqirish kabi lisoniy vositalar yordamida anglashiladi. Ovozning baland-pastligi ko‘p hollarda ixtiyoriy ravishda tanlanadi. Biroq ayrim kuchli ruhiy holatlar, masalan, affekt holatida so‘zlovchi ovozining balandligi ixtiyorsiz ravishda pasayishi yoki ko‘tarilishi mumkin.

Shivirlamoq “juda past ovoz bilan, shivir-shivir qilib gapirmoq”[10] ma’nosini anglatadi. Odatda, shivirlash atrofdagilar so‘zlashuvchilar suhbatini eshitmasliklari uchun yoki boshqa ko‘plab hissiy holatlar ifodasi sifatida amalga oshirilishi mumkin.

– Qalaysan? – dedi shivirlab. Iljaydim. – Yaxshi! (120-bet)

So‘zlovchi ovozining balandligi badiiy matnda baqirmoq, qichqirmoq, chinqirmoq, shang‘illamoq kabi leksemalar yordamida verballashadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da baqirmoq leksemasining quyidagi ma’nolari keltirilgan: 1. Bor ovoz bilan qichqirmoq, shovqin solmoq. 2. Og‘riqdan yoki qo‘rquvdan dod solmoq, dod-faryod ko‘tarmoq. 3. Ovozi boricha dag‘dag‘a qilmoq, do‘q urmoq, po‘pisa qilmoq[11].

Baqirish ovozini hamma eshitishi uchun balandlatib gapirish maqsadida amalga oshirilishi mumkin. Bunda shovqin, tashqi ta’sirlar natijasida so‘zlovchining ovozi tinglovchiga yetib bormasligini hisobga olgan holda atay ovoz balandlatib gapiriladi:

Payshanba – maosh kuni edi. Peshindan keyin atrofi taxta devor bilan omonat o‘ralgan qurilish hovlisiga chang-to‘zon ko‘tarib “ZIL” mashinasi kirib keldi. Chekkadagi ko‘chma vagoncha oldida voshillab to‘xtadi. Kabina eshigi ochilib, qo‘ltig‘iga qora sumka qistirgan kassir qiz – Faya sakrab tushdi. Vagoncha zinasiga pildirab chiqib, baqirdi:

– Yigitlar, kelig‘iz, zarplata olig‘iz! (6-bet)

Yuqorida keltirilgan parchada Faya barcha ishchilar ovozini eshitishi uchun ovozini balandlatib gapiradi. Lekin baqirib gapirish doim ham ovoz kanallaridagi shovqin natijasida eshitarli qilib gapirish maqsadida amalga oshmaydi. Aksariyat hollarda baqirish so‘zlovchi ruhiy holatini ko‘rsatadi. Baqirish salbiy hissiyotlarning yuzaga chiqishi natijasi bo‘lib, so‘zlovchiga jahl qilish, g‘azabini sochish maqsadida ovoz balandlatiladi. Bu orqali dag‘dag‘a qilish, do‘q urish orqali so‘zlovchini o‘ziga bo‘ysundirish, unga hukm o‘tkazish nazarda tutiladi:

Hozir ham arava tomonga yugurgan edim, dadam jahli chiqib baqirib berdi: – Borma u yoqqa! (24-bet)

Qichqirmoq leksemasining bir necha ma’nolari mavjud bo‘lib, ulardan birinchisi “juda kuchli, jarangli ovoz chiqarmoq, baqirmoq” sanaladi. Qichqirmoq leksemasi “baland ovozda gapirmoq” sinonimik qatoriga kiruvchi baqirmoq, shang‘illamoq leksemalaridan farqli ravishda ijobiy konnotatsiyaga egaligi bilan farqlanadi. Qichqirmoq ijobiy his-tuyg‘ular – sevinch, quvonish, mamnunlikni bildiradi, bunda

---

[9] Гозиева М. Просодика. –Тошкент: Akademnashr, 2019. – Б.54.

[10] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. VI jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – Б.649.

[11] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. I jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – Б.279.

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii



ko‘p hollarda to‘satdan quvonib ketish natijasida ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda ovoz balandlashib, qichqirish yuzaga keladi:

– Sovuqmas, opa! – Olimjon loy yuqi kafti bilan yomg‘irdan ho‘l bo‘lgan yuzini artib yaqin keldi. – Oldik! – dedi qiz bolanikiga o‘xshagan ingichka ovozda. Lekin o‘sha zahoti quvonch bilan qichqirib yubordi: – Aka! (141-bet)

Shuningdek, mazkur leksema “qattiq ovoz bilan chaqirmoq” ma’nosini ham anglatadi:

– Dada! – Yalangoyoq chopib borarkanman, entikib qichqirdim: – Dadajon! (60-bet).

Chinqirmoq leksemasi “ingichka va o‘tkir tovush chiqarmoq, chiyillagan tovush bilan qichqirmoq”[12] ma’nosini anglatib, salbiy konnotatsiyaga ega. Chinqirmoq psixolingvistik jihatdan so‘zlovchining g‘azabini, nafratini yoki kuchli adovatini ifodalab, uning salbiy hissiyotlarini ifodalaydi. Shuningdek, bu leksemada ham tinglovchiga hukm o‘tkazishga, o‘ziga bo‘ysundirishga intilish konnotatsiyasi mavjud. Qichqirmoq kuchli va jarangli ovozni anglatsa, chinqirmoq ingichka va o‘tkir ovozni bildiradi:

Pakana kishi yana birpas xezlanib turdi-da, nari ketdi. Pastak eshikni oyog‘i bilan tepib, hovli ichkarisiga qarab g‘azabnok chinqirdi: – Chaqqon bo‘l. Hoy! Katta uyni bo‘shat! (52-bet)

Shang‘illamoq leksemasi 1. Baland ovoz bilan baqirib gapirmoq. 2. Qattiq yoqimsiz ovoz chiqarmoq[13] ma’nolarini anglatib, salbiy konnotatsiyaga ega. Bu leksema “baland ovoz bilan, baqirib gapirish” ma’nosiga qo‘shimcha ravishda “suhbatdoshga norozilik bildirish” konnotatsiyasiga ham ega:

– Tekshiramiz, dedi. – Gunohi nima ekan, demaysanmi, ovsar! – Bobom hammasiga Oqsoqol buva aybdordek, shang‘illadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. – Андижон, 1980. – 42 б.
2. Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва мимикалар. Илмий-оммабоп рисола. – Тошкент: Фан, 2008. – 82 б.
3. Саидхонов М. Ишораларнинг вербаллашуви ва матний хусусиятлари. – Тошкент, 2022. – 228 б.
4. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, 2006. – 92 б.
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 318 б.
6. Солижонов Й. Бадиий нутқ поэтикаси. – Тошкент, 2023. –191 б.
7. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 399 б.
8. Хакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 176 б.

[12] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. VI jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – Б.783.

[13] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. VI jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – Б.586.